

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10899953>

## DIVERSIFIKATSIYA JARAYONINING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNING MAZMUNI

**Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Biz uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining asosiy tamoyillari sifatida uning muttasil o'zgaruvchanlik, shaxsga qaratilganlik, muqobil variantlilik, insonparvarlik va yangilik kabi tamoyillarni belgilagan edik. Quyida sanab o'tilgan tamoyillarning har biriga xos xususiyatlarni va ularning ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatish darajasini ushbu maqola orqali alohida holda ko'rib chiqamiz.*

**Tayanch so'zlar:** tamoyil, o'zgaruvchanlik, shaxsga qaratilganlik, muqobil variantlilik, insonparvarlik, yangilik, ta'lim, diversifikatsiya, texnologiya.

Mohiyatan, jamiyat o'z talab va ehtiyojlarini o'zi qondirish xususiyatiga ega: aksar hollarda yangi, zamonaviy, mazmun-mundarijaviy jihatdan turfa bilimlarga bo'lgan talabni faqat yangi o'qituvchi yoki yangi ta'lim muassasasi vositasida qondirish mumkin degan qarashlar ham yo'q emas [1]. Shuning uchun hozirgi vaqtda tashabbuskor, yangi pedagogik texnologiyalar arsenaliga ega, ijtimoiy faol, o'z shaxsini rivojlantirishga muntazam intiluvchi o'qituvchilarni izlash faollashgan. Umuman olganda, ta'lim sifatini ko'tarishga nisbatan bu xildagi yondashuvlar yangilik emas. O'z vaqtida A.S.Makarenko ham shu xildagi pedagogik tamoyilni ilgari surgan edi: "Shaxsga hurmat qancha yuqori bo'lsa, unga talab ham shunchalar ortadi" [2].

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim muassasasi – moslashuvchanligi bilan xarakterlanadigan va pedagogik jarayonlarning natijadorligiga intiluvchi yaxlit tizimdir. O'qitish shakllarining turli va variativ xususiyatli ekanligi, chuqurlashtirilgan o'qitish imkoniyatlarining mavjudligi, o'quv-metodik majmuani tanlash erkinligi o'qituvchidan, avvalo, o'z metodik paradigmasini o'zgartirishni talab qiladi. Buning hosilasi o'laroq, o'qituvchi:

1. Ta'lim mazmun-mundarijasi, 2. O'qitish texnologiyasi, 3. O'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchining roli kabi yo'nalishlarda o'z paradigmasini o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Aslida, ta'limning mazmun-mundarijasida keskin va uzil-kesil o'zgarishlar tatbiq etilishi ta'limning sifatiga salbiy ta'sir qiladi, negaki, o'zgarish

maromlilik, ravonligi, “eskirgan materiallarning yangilanishligi” kabi xususiyatlari bilan ham ahamiyatlidir. Shuning uchun o‘qituvchi paradigmasi ta’lim mazmun-mundariyasi yo‘nalishida o‘zgarar ekan, bu o‘zgarish bosqichlilik tamoyiliga asoslanishi lozim. Dastlab, mazmun-mundarija tarkibidagi anchayin yorqin va esda qolarli materiallar o‘zgarishi hamda o‘zgargan holda ta’lim oluvchi xotirasida muhrlanib qolishiga erishishi lozim. Bu voqelikning psixologik ahamiyati ham mavjud bo‘lib, u o‘quvchini “yangiliklar, o‘zgarishlar tomonga yetaklaydi” [3]. Shu o‘rinda, o‘quv dasturlarining (ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimida) “tarixiylik” xususiyatiga ega ekanligi, bu hol ta’lim oluvchiga o‘z o‘quv-bilish faoliyatida tegishli o‘zgarish sodir etishga monelik qilishini aytish lozim. Masalan, ma’lum bir o‘quv fani bo‘yicha yuqori kurslarda (umumta’lim maktablarida – yuqori sinflarda) o‘rganiladigan mavzu ta’limning quyi bosqichlaridan boshlanadigan ildizlarga ega. Mazmun-mundarijaviy o‘zgarishlar yasash esa materiallarning “tarixiylik” xususiyatlarini istisno etishni taqozo etadi. Uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya esa (xuddi marketing talablari asosida ta’lim xizmati ko‘rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatidagidek) o‘quv materialini “kelgan joyidan” yangilab ketishni nazarda tutadi va aynan o‘z muttasil o‘zgaruvchanlik tamoyili bilan ta’lim jarayoni sub’ektlarining “o‘zgarishlarini osonlashtiradi” [4].

O‘qituvchining o‘z-o‘zini o‘qitish texnologiyasi yo‘nalishida o‘zgartirishi ham dars jarayonida ayrim muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Mazkur muammolar hozirgi davr bolalarning kitobga kam murojaat qilishlari, o‘rganilayotgan mavzuga doir ma’lumotlarni axborot texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot ko‘rinishida olayotganlari ham sir emas. Ta’lim amaliyotida keng quloq yoygan bu holatning salbiy tomoni tomoni o‘qituvchining asosiy funksiyalari va o‘qitishning “tili” o‘zgarishi bilan bog‘liq. Masalan, muayyan bir o‘quv fani bo‘yicha “avval” foydalanilgan o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarining mavzuga oid materialni yoritishda foydalangan uslubi, bayon etish shakli, mulohazalar yo‘nalishi axborot texnologiyalari vositasida xuddi o‘sha mavzu bo‘yicha taqdim etilgan materialdan farq qilishi, bu esa ta’lim oluvchilarda tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga ta’limga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi o‘qituvchidan o‘qitishning yangi shakllari, metodlari va metodikalariga murojaat qilishni talab qiladi: natijada esa o‘qituvchi o‘zining faoliyatini hosil qiluvchi bir necha funksiyalarini o‘zgartirishi yoki tubdan yangilashi zarur bo‘ladi (masalan, ma’lum bir mavzuni o‘rganishda bahs-munozara tashkil qilishi uchun o‘qituvchi bayonchilik funksiyasini tubdan yangilashi, o‘zida muvofiqlashtiruvchilik, boshqaruvchilik kabi funksiyalarni rivojlantirishi lozim) [5]. Bunday o‘zgarishlarning umumta’lim maktablarida yoki nisbatan katta jamoa hisoblangan OTMlarda qiyin kechishi mumkinligi ma’lum.

Sababi, an'anaviy muassasalarda eng avvalo pedagogik muhitni kommunikativ-ijodiy muhitga aylantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish kerak bo'ladi: bu esa ko'p vaqt talab qiladigan davomli jarayon. Jamiyatning talab va ehtiyojlari natijasi o'laroq sodir bo'lgan uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining hosilasi sifatida shakllangan ta'lim xizmatlari marketingida o'qituvchining o'qitish texnologiyasi yo'nalishida o'zgarishi muammosini hal etish yo'llari ko'zda tutiladi: gap shundaki, an'anaviy ta'lim muassasalari bilan gorizontaal ierarxiyada bir xil darajadagi zinani egallagan zamonaviy ta'lim xizmati ko'rsatish muassasasida aksar hollarda "tayyor o'qituvchi", ya'ni yuqori darajada kreativlikka ega bo'lgan mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi [6].

Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining shaxsga qaratilganlik tamoyilining ahamiyati o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida shakllanadigan hamda davomli ravishda barqarorlashib boradigan munosabatlarning yangilanishida namoyon bo'ladi. Biz ushbu o'rinda o'qituvchining shaxs sifatidagi sifatleri muhim ekanligini alohida qayd etishni lozim deb hisoblaymiz. Negaki, "ta'limning har qanday shakl, tur, ko'rinish, metod va texnologiyasida o'qituvchi ta'lim oluvchi uchun eng birlamchi va asosiy bilim manbai bo'lib qolaveradi. Garchi televideniye, axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari, ekskursiya sayohatlari, ta'lim oluvchining shaxsiy intilishlari evaziga olingan bilimlar ham muhim sanalsa-da, baribir, ta'lim oluvchi nazarida o'qituvchi "hamma narsani bilguvchi" hisoblanadi: aks holda uning auditoriyada o'tirishidan ma'no qolmaydi" [5]. Biroq hozirgi davr o'qituvchisi uchun ta'lim oluvchilarni hayron qoldirish, qiziqtirish, yangi bilimlar taqdim etish oson emas. Chunki, "bola qanchalik ko'p bo'lsa, qiziqishlar shunchalik turfa" [6]. Bunday sharoitda o'qituvchi, eng avvalo, ta'lim oluvchilar shaxsini o'rganib chiqishi, reflektiv usullar yordamida ularning ta'lim olishning barcha komponentlariga bo'lgan munosabatni o'rganib chiqishi, shuningdek, olingan axborotni chuqur tahlil qilishi va taqdim etadigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solishi lozim bo'ladi. O'qituvchining tashkilotchilik funksiyasi ustivor bo'lishi, uning pedagogik faoliyatini hosil qiluvchi tuzilma ta'lim oluvchilarning ijodiy potensialini ochishga qaratilishi muhim sanaladi. O'qituvchi jamoviy faoliyatni har bir o'quvchining faolligini oshirish natijasida rivojlantirishi, binobarin, har bir ta'lim oluvchini ta'lim jarayoni sub'ekti darajasiga ko'tarilishi uchun sharoit va kommunikativ muhit yaratishi talab etiladi. Ya'ni ushbu o'rinda "ob'ektiv jarayonli yondashuv o'rnini sub'ektiv-faoliyatli yondashuv egallaydi" [7]. Mazkur jarayon shaxsning doimiy, izchil ravishda ravnaq topib borishiga qaratilgan bo'lib, uning natijasida ta'lim oluvchining ta'limiy ehtiyojlari yanada ortib borishi kuzatiladi. Ko'rib turganimizdek, bu hol ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining yanada tez sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu

o'ziga xos "diversifikatsiyaviy zanjir"ni oddiy hayotiy misol bilan tushuntirish mumkin. Atrofi kunlik ashyolar, predmetlar, turli ob'ektlar bilan qurshalgan odam tabiatni kuzatishga, olam kengligidan lazzat olishga harakat qilmaydi, lekin sal balandroqdan olamni kuzatishga ichki ehtiyoj sezadi. Intilish natijasida nisbatan balandroqqa chiqqach esa, olamning o'z tasavvuridagidan ancha keng ekanligini his qiladi va bu hissiyot yanada balanroqqa ko'tarilishga undaydi: shunday qilib, u yuqorilagani sari yanada ko'proq narsani ko'rishga, atrof-borliqni mukammalroq idrok etishga harakat qiladi, binobarin, shaxsning ehtiyoj va talablari ortib boraveradi. Shu barobarida, balandlikka intilgan shaxs yuqoriga ko'tarishi mumkin bo'lgan vositalarni axtaradi. Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning shaxsga qaratilganlik tamoyili ta'lim jarayoni sub'ektlaridan ikki tomonlama faollik talab qiladi: bunda ta'lim oluvchining faolligi undagi bilish ehtiyojining ortishida, o'qituvchining faolligi esa unga bilish manbalarini taqdim etishida namoyon bo'ladi. Demak, uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining shaxsga qaratilganlik tamoyili ta'lim jarayonida sub'ekt-faoliyatli yondashuvning takomillashuvini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining muqobil variantlilik tamoyili quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- ta'lim mazmun-mundarijasining ta'lim oluvchi ehtiyojlariga muvofiqligi;
- ta'limning sifatli ekanligi;
- ta'limning alohida shaxs ravnaqiga yo'naltirilganligi;
- tanlash imkoniyatlarining kengligi.

Biz bu xususiyatlarning har biriga alohida to'xtalib, mazkur tamoyilning ta'lim sifatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini asoslab berishga harakat qilamiz. Ta'lim mazmun-mundarijasining ta'lim oluvchi ehtiyoj va talablariga muvofiqligini tahlil etishda muayyan fan bo'yicha o'quv dasturlari va o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzular majmuasi ko'zda tutilmaydi, zero, mamlakat bo'yicha ta'lim muassasalarining yuridik maqomidan qat'i nazar, barchasida tegishli me'yoriy hujjatlar (xususan, DTS) talablari asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturi amal qilinadi. Biz ayni o'rinda ta'lim mazmun-mundarijasi deganda muayyan mavzu bo'yicha eng yangi, zamonaviy ma'lumotlarning miqdor va sifat jihatdan ehtiyojni qondirishi lozimligini nazarda tutmoqdamiz. Masalan, OTMning pedagogika yo'nalishi talabasi "diversifikatsiya" tushunchasi bo'yicha faqat ensiklopedik mazmundagi ma'lumot bilan qanoatlanib qolmasdan, o'qituvchi yordamida bu atama bilan bog'liq tahliliy materiallarni ham o'zlashtirishi va mazkur mavzu bo'yicha o'z tasavvur doirasiga ega bo'lishi mazkur xususiyatning mohiyatini oydinlashtiradi.

Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning muqobil variantlilik tamoyilining yana bir xususiyati ta'limning sifatli olib borilishi bilan bog'liqdir. Aytish kerakki,

o'qituvchi mehnatining tuzilmaviy tarkibi faqat bilim berish va uning o'zlashtirilishini nazorat qilishdangina iborat bo'lib qolmay, ta'lim oluvchini tashxislash, maqsadga qaratilgan bashorat, tashkiliy faoliyat, kommunikativ-rag'batlantirish, ijodiy tadqiqotchilik va tahliliy-baholash kabi faoliyat turlarini ham o'z ichiga oladi [4]. Pedagogik tashxislash ta'lim oluvchining o'quv-bilish va ijodkorlik, tadqiqotchilik imkoniyatlarini o'rganish, natijada esa o'z harakatlarini shunga muvofilashtirishdan iboratdir. Pedagogik tashxislash natijasida ta'lim oluvchi-o'qituvchi munosabatlarining yangi modeli (ko'rinishi) shakllanadi va bu munosabat rivojlanib, sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga aylanadi. O'qituvchi mehnatining maqsadga qaratilgan bashoratni amalga oshirish faoliyati ta'lim oluvchining talablari va imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni o'rganish hamda mazkur o'rganish natijalariga qarab, ta'lim oluvchiga yondashishdan iborat. O'qituvchi mazkur faoliyatni amalga oshirish davomida ta'lim oluvchining qiziqish yo'nalishlari, o'zlashtirishi oson kechadigan bilim komponentlari haqida etarli darajada tasavvurga ega bo'lishi muhimdir.

Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning muqobil variantlilik tamoyilining ta'lim sifatiga oid xususiyatida o'qituvchi mehnatining muhim tarkibiy qismlaridan biri tashkiliy faoliyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etar ekan, ta'lim sifatini ta'minlashi mumkin bo'lgan o'qitish texnologiyasini tanlashdek muammoga duch keladi. O'qitishning tanlangan texnologiyasi ta'lim oluvchilarning ehtiyojlariga muvofiq va imkoniyatlari darajasida bo'lishi muhimdir [8].

O'qituvchi o'qitishning istalgan texnologiyasini tanlaganda ham, baribir, yana bir eng muhim faoliyatni amalga oshiradi. Bu – uning mehnatining samarali tarkibiy qismlardan biri bo'lgan kommunikativ-rag'batlantirish funksiyasidir. Kommunikativ-rag'batlantirish o'qituvchining reflektiv-tahlili kuzatish natijalari sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, dars jarayonlari jamoaviy faoliyat. Jamoaviy ta'lim olish – bu o'quv fani (yoki o'quv mavzusi) sohasiga jamoaviy tarzda “sho'ng'ish” demakdir: bunda ta'lim oluvchilar jamoasining barchasi deyarli bir “zinada” turadi va ular o'rtasida kommunikativ aloqalar o'rnatilishi natijasida mavzuga oid bilimlar shaxsdan shaxsga “ko'chib o'tadi” [9]. Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining muqobil variantlilik tamoyilining ta'lim sifatiga oid xususiyatida muhim o'rin tutuvchi kommunikativ-rag'batlantirish faoliyatining mohiyatini oydinlashtirish uchun A.Eynshteynning quyidagi ibratli fikrini keltirib o'tish mumkin: “Sizda bitta olma va menda bitta olma bo'lsa-yu, siz o'zingizdagi olmani menga bersangiz – menda ikkita olma bo'ladi; sizda esa yo'q. Agar menda bitta g'oya bo'lsa va sizda ham bitta g'oya bo'lsa-yu, ikkalamiz o'zaro almashsak, har birimizda ikkitadan g'oya bo'ladi”.

Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning insonparvarlik va yangilik tamoyilining xususiyatlari esa yuqorida keltirilgan tamoyillarning umumlashmasi va yaxlit, birbutun ko'rinishda namoyon bo'lishi orqali tushuntiriladi.

Shunday qilib, uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya tamoyillariga xos xususiyatlarning ta'lim sifatiga ta'siri quyidagi ko'rinishlarda aks etadi, deya olamiz:

-shaxsning ta'lim olish imkoniyatlarini bozor munosabatlari sharoitida yuksaltirish va ta'lim yo'nalishini jarayon sifatida shaxs manfaatlariga qaratish;

-ta'limga erkin va demokratik jamiyat qurishning eng asosiy vositasi sifatida qarash;

-ta'limning mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy-madaniy soha rivojlantiruvchi muhim omil sifatida alohida shaxs va jamiyat talablari asosida rivojlanib borishini e'tirof etish;

-ta'lim tizimini mufassal tarzda axborotlashtirish;

-ta'limning uzluksizligi ikkita ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifani – kadrlar resursini yaratish tizimini shakllantirish va bu tizimni uzluksiz, davomli ravishda yangilab borish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga qaratilganligi;

-ta'limning ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohalar bilan keng ko'lamlı integratsiyalashuvi.

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya mohiyatan yangilik bo'lib, ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning yangilikka intilishlari hosilasidir. An'anaviy ta'lim muassasalarida o'qitishni ta'lim xizmatlari marketingi asosida yo'lga qo'yish orqali "iste'molchilar"ning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish uchun esa uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning asosiy tamoyillariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish va ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish lozim bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Otamurodova Sh. O. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi oʻrni // “Mugʻallim h m yzliksiz bilimlendirio‘ ilimiy-metodikalyq jurnal”. – N kis, 2023. – № 1/1. – 92-99 b.

2. Пухнатова И. В. Нетрадиционные формы и методы проведения уроков как один из путей повышения познавательной деятельности учащихся. <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/298922-netradicionnye-formy-i-metody-provedeniya-uro>

3. Байденко В. И. Диверсификация среднего профессионального образования: сущность, условия, пути реализации: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 1995. – 16 с.

4. Афанасева Т. П. Профилное обучение в школе: модели, методы, технологии. Уч. пос. М., 2006.–178 с.

5. Недосекина Н. В. Диверсификация видов педагогической деятельности как отражение сущностных характеристик образования в постиндустриальном обществе // “Человек и наука”. – 2013. – №2. – 70-73 с.

6. Галацкова И.А. Моделирование вариативных образовательных маршрутов учащихся как средства обеспечения адаптивности школьной среды. Автореферат. –Ульяновск: 2010. – 27 с.

7. Axunova G. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari marketingi muammosi. O‘quv qo‘llanma. TDIU, T. “Iqtisod-moliya”. – 2005. – 183 b.

8. Артюхов М. В. Диверсификация муниципальной системы образования. Опыт и перспективы. Уч. пос. –М., “Образование”, 2003. – 123 с.

9.Шабалина С. С. Проведение творческих исследовательских работ под руководством учителя // Исследовательская работа школьников. – 2005. –№5. – 115-119 с.